

---

## Scientific Research Activities of the Republican Institute of Russian Language and Literature Pedagogy (1964–1990)

Ramazanov Ulugbek  
[ulugbekramazanov0@gmail.com](mailto:ulugbekramazanov0@gmail.com)

Doctoral researcher,  
Uzbekistan State World Languages University

**Annotation** *This article provides a comprehensive analysis of the research works, the system of training scientific and pedagogical staff, and the activities of scientific publications carried out in the second half of the 20th century at the Republican Pedagogical Institute of Russian Language and Literature, based on historical sources. The study thoroughly describes the establishment of the institute, the stages of development of its scientific and pedagogical potential, the composition of the faculty, and their academic activities. It also deeply examines the postgraduate system, dissertation defenses, the formation of scientific schools, and the dynamics of the development of scientific personnel training. The article consistently analyzes the system of organizing research activities at the institute and its stages of development based on state-level decisions, decrees, and regulatory legal documents. It substantiates the effective implementation of textbooks, teaching manuals, and methodological materials created by the institute's scholars into the educational process. The results of the study show that the institute has become a leading scientific center in the fields of Russian language teaching methodology, linguistics, and literary studies, and has made a significant contribution to the development of the national education system. In addition, the contribution of the research work conducted at the Institute of Russian Language and Literature to the development of republican scientific research is separately studied and examined in detail.*

**Keywords** *Republican Pedagogical Institute of Russian Language and Literature, scientific research activities, training of scientific and pedagogical personnel, postgraduate studies, methodology of teaching Russian, textbooks, monographs, linguistics, literary studies, pedagogy*

---

## Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot faoliyati (1964-1990 yillar)

Ramazanov Ulug'bek Homid o'g'li  
[ulugbekramazanov0@gmail.com](mailto:ulugbekramazanov0@gmail.com)  
Tayanch doktorant,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi hamda ilmiy nashrlar faoliyati tarixiy manbalar asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda institutning tashkil topishi, uning ilmiy-pedagogik salohiyatining shakllanish bosqichlari, professor-o'qituvchilar tarkibi va ularning ilmiy faoliyati batafsil yoritilgan. Shuningdek, aspirantura tizimi, dissertatsiya himoyalari, ilmiy maktablarning shakllanishi hamda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonining rivojlanish dinamikasi chuqur o'rganilgan. Maqolada davlat miqyosida qabul qilingan qarorlar, farmonlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida institutda*

*ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish tizimi hamda uning rivojlanish bosqichlari izchil tahlil etiladi. Institut olimlari tomonidan yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik ishlanmalar ta'lim jarayoniga samarali joriy etilgani asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari institutning rus tilini o'qitish metodikasi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlarida yetakchi ilmiy markaz sifatida shakllanganligini hamda milliy ta'lim tizimi rivojiga sezilarli hissa qo'shganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Rus tili va adabiyoti institutida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining respublika ilmiy tadqiqot ishlari rivojiga qo'shgan hissasi tadqiq qilinadi ham batafsil o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar** *Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika instituti, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, aspirantura, rus tilini o'qitish metodikasi, darsliklar, monografiyalar, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, pedagogika*

---

## **Научно-исследовательская деятельность Республиканского педагогического института русского языка и литературы (1964–1990 гг.)**

**Рамазанов Улугбек Хомид угли**

[ulugbekramazanov0@gmail.com](mailto:ulugbekramazanov0@gmail.com)

Базовый докторант,

Узбекский государственный университет

мировых языков

**Аннотация** *В данной статье комплексно анализируются научно-исследовательские работы, система подготовки научно-педагогических кадров и деятельность научных изданий, проводившиеся во второй половине XX века в Республиканском педагогическом институте русского языка и литературы, на основе исторических источников. В исследовании подробно освещаются создание института, этапы формирования его научно-педагогического потенциала, состав профессорско-преподавательского коллектива и их научная деятельность. Также глубоко изучены система аспирантуры, защиты диссертаций, формирование научных школ и динамика развития процесса подготовки научных кадров. В статье последовательно анализируется система организации научно-исследовательской работы в институте и этапы её развития на основе принятых на государственном уровне решений, указов и нормативно-правовых документов. Обосновывается эффективное внедрение в учебный процесс учебников, учебных пособий и методических разработок, созданных учёными института. Результаты исследования показывают, что институт сформировался как ведущий научный центр в области методики преподавания русского языка, языкознания и литературоведения, а также внес значительный вклад в развитие национальной системы образования. Кроме того, отдельно исследуется вклад научно-исследовательских работ, проводимых в Институте русского языка и литературы, в развитие республиканских научных исследований, что также подробно изучается.*

**Ключевые слова** *Республиканский педагогический институт русского языка и литературы, научно-исследовательская деятельность, подготовка научно-*

*педагогических кадров, аспирантура, методика преподавания русского языка, учебники, монографии, лингвистика, литературоведение, педагогика*

### **Kirish**

XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston SSR oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralgan. Ayniqsa, milliy maktablarda rus tili va adabiyotini o'qitish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish masalasi dolzarb vazifalardan biri hisoblangan.

Mazkur jarayonda Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika instituti muhim ilmiy-pedagogik markazlardan biri sifatida shakllandi. Institut tashkil etilgan dastlabki yillardan boshlab professor-o'qituvchilar tomonidan rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasi, umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda pedagogika sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

1960–1980-yillarda institut ilmiy faoliyatining rivojlanishi davlat miqyosida qabul qilingan bir qator normativ hujjatlar bilan ham bog'liq bo'ldi. Jumladan, SSSR KPSS Markaziy Qo'mitasi va SSSR Ministrlar Sovetining 1967-yil 16-noyabrdagi "Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashni yaxshilash to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish va aspirantura tizimini kengaytirishga xizmat qildi.

Shuningdek, O'zSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1971-yil 23-iyuldagi qarori hamda O'zSSR Maorif vazirligining 1982-yil 2-martdagi buyrug'i respublika oliy ta'lim muassasalarida ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjatlar bo'ldi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotda arxiv

hujjatlari, institut ilmiy hisobotlari, professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar hamda o'quv-metodik nashrlar asosiy manbalar sifatida tahlil qilindi.

Shuningdek, institut ilmiy faoliyatining rivojlanish dinamikasini o'rganishda statistik tahlil metodidan ham foydalanildi. Bunda professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy darajaga ega bo'lgan mutaxassislar soni, dissertatsiya himoyalari hamda ilmiy nashrlar soni tizimli ravishda o'rganildi.

Tadqiqotda tarixiy jarayonlarni davriy ketma-ketlik asosida o'rganish usuli qo'llanilib, institut ilmiy faoliyatining rivojlanish bosqichlari hamda uning ta'lim tizimiga ta'siri aniqlab berildi.

### **Tadqiqot natijalari**

1960-yillardan boshlab institutda ilmiy-tadqiqot ishlari tizimli ravishda yo'lga qo'yildi. Institut professor-o'qituvchilari tomonidan rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasi, umumiy tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik sohalarida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Xususan, 1966-yilda dotsent A.R. Rustamov tomonidan "A. Navoiy tilining fonetik-morfologik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Shu davrda bir qator nomzodlik dissertatsiyalari ham muvaffaqiyatli himoya qilinib, institut ilmiy salohiyati mustahkamlandi.

XX asrning 70-yillarida institutda ilmiy nashrlar faoliyati sezilarli darajada kengaydi. Professor-o'qituvchilar tomonidan maktablar hamda pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik tavsiyalar yaratildi.

1977-yilda institutda "Milliy maktabda rus tilini o'qitish metodikasi" mutaxassisligi bo'yicha aspirantura tashkil etildi. Bu esa ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

XX asrning 80-yillarda institut ilmiy salohiyati yanada kengaydi. 1984-yilda institutda 303 nafar pedagog kadrlar faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan 6 nafari fan doktorlari, 79 nafari fan nomzodlari edi.

1984–1985 o'quv yilida institutda 2 ta doktorlik va 10 ta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Bu davrda institut olimlari tomonidan monografiyalar, ilmiy maqolalar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalar keng miqyosda nashr etildi.

1985–1986 o'quv yilida 5 ta monografiya, 1 ta ilmiy ishlar to'plami, 7 ta o'quv qo'llanma hamda 92 ta ilmiy maqola chop etildi. Bu nashrlar respublika maktablari va oliy ta'lim muassasalarida rus tili va adabiyotini o'qitish jarayonini metodik jihatdan ta'minlashga xizmat qildi.

1986-yilda Maorif vazirligining buyurtma rejasi asosida institut bosh ijrochi sifatida 21 ta oliy o'quv yurti bilan hamkorlikda "Milliy maktablarda rus tilini o'qitish mazmuni va metodlarini takomillashtirish" mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

1989–1990 o'quv yillarida esa institut olimlari umumta'lim va oliy maktablarni isloh qilish talablari asosida yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratdilar.

### **Asosiy qism**

XX asrning 60-yillari boshlarida O'zbekiston SSRda milliy maktablarda rus tilini o'qitish tizimini takomillashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, 1962-yil may oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan Ikkinchi Respublikalararo ilmiy-amaliy konferensiya milliy maktablarda rus tilini o'qitish muammolarini muhokama qilishga bag'ishlandi. Mazkur konferensiyada rus tilining milliy maktablar ta'lim tizimidagi o'rni, uni o'qitish metodikasini takomillashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'quv-metodik ta'minotni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Ushbu davrga kelib rus tili milliy maktablarda asosiy fanlardan biriga aylangan bo'lib, o'quv rejalari tarkibida rus tili faniga ajratilgan dars soatlari ko'pincha milliy til

fanlariga ajratilgan soatlardan ham ortib borayotgan edi. Natijada, respublikada rus tili o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoj keskin ortdi (Кадыров, 1974).

Mazkur ehtiyojlarni qondirish hamda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish maqsadida ittifoq darajasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, SSSR Ministrlar Sovetining 1963-yil 9-maydagi 533-sonli "Oliy va o'rta maxsus ta'limni yanada rivojlantirish, mutaxassislarni tayyorlash va ulardan foydalanishni yaxshilash choralari to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, yangi ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarini tashkil etish hamda malakali mutaxassislar tayyorlash hajmini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri bo'ldi. Mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1963-yil 24-avgustdagi 492-sonli qarori qabul qilindi va unga muvofiq, Toshkent shahrida Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika instituti tashkil etildi (TSHDMA.R-588-jamg'arma.1-ro'yxat.1-ish, 9).

Yangi institutni tashkil etishda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakulteti asosiy tayanch sifatida xizmat qildi. Mazkur fakultet devorlarida O'zbekiston maktablari, shuningdek Markaziy Osiyoning boshqa respublikalari hamda Rossiya Federatsiyasi hududlarida faoliyat yuritayotgan minglab rus tili va adabiyoti o'qituvchilari tayyorlangan edi. Fakultetda shakllangan ilmiy-pedagogik jamoa deyarli to'liq tarkibda yangi tashkil etilgan institutga o'tkazilib, u yerda o'qituvchi-filolog kadrlarni tayyorlash jarayoni yo'lga qo'yildi. Ushbu jamoa tomonidan pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha boy tajriba umumlashtirilib, o'quv jarayonini maktab amaliyoti, hayotiy ehtiyojlar hamda respublikada xalq ta'limi tizimini rivojlantirish vazifalari bilan uzviy bog'lash tajribasi shakllantirildi.

Institut faoliyatining dastlabki yillaridanoq uning professor-o'qituvchilari tomonidan pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik

tavsiyalar hamda o'qituvchilar uchun turli metodik ishlanmalar yaratildi. Institut olimlari tomonidan yozilgan darsliklar asosida o'zbek maktablarining yuqori hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa institutning nafaqat pedagog kadrlar tayyorlash, balki maktab ta'limi uchun o'quv-metodik bazani rivojlantirishdagi muhim rolini ko'rsatar edi.

Tashkil etilgan institut tarkibida dastlab ikki fakultet faoliyat yurita boshladi. Birinchi fakultet avvalgi rus tili va adabiyoti fakultetining yuqori kurslarini birlashtirgan bo'lib, unda talabalar eski besh yillik o'quv rejasi asosida keng profilli o'qituvchilar tayyorlash dasturi bo'yicha tahsil olganlar. Ikkinchi fakultet esa yangi tashkil etilgan bo'lib, aynan milliy maktablar uchun rus tili va adabiyoti o'qituvchilarini tayyorlashga ixtisoslashgan edi. Ushbu fakultetga birinchi o'quv yilidayoq 300 nafardan ortiq talaba qabul qilindi.

Mazkur fakultet tarkibida ikki bo'lim tashkil etildi: birinchisi o'zbek tilida ta'lim beriladigan maktablar uchun rus tili va adabiyoti o'qituvchilarini tayyorlashga ixtisoslashgan bo'lsa, ikkinchisi qoraqalpoq va qozoq tillarida ta'lim beriladigan maktablar uchun rus tili va adabiyoti o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan edi. Ikkinchi bo'limni tashkil etish zarurati, avvalo, Qoraqalpog'iston hamda Sirdaryo viloyati hududlarida qozoq tilida ta'lim beriladigan maktablar sonining ko'pligi bilan izohlanar edi. Shu tariqa institut respublikaning turli hududlari uchun pedagog kadrlar tayyorlashga xizmat qiladigan muhim ilmiy-pedagogik markazga aylandi.

Respublika rus tili va adabiyoti institutining birinchi rektori o'zbek dialektologiyasi, o'zbek grammatikasi, rus grammatikasi, qiyosiy tilshunoslik sohalarida faoliyat yuritgan taniqli olim, O'zbekiston maktablari va universitetlari uchun ko'plab lug'atlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari muallifi Viktor Vladimirovich Reshetov bo'lgan (Kajumov, 2017). U yangi tashkil etilgan institut

faoliyatini tavsiflar ekan, unda milliy maktablar uchun rus tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimi o'quv rejasining amaliy-metodik yo'nalganligi bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, o'quv jarayonida nazariy tilshunoslik fanlari bilan bir qatorda rus tilini o'qitish metodikasi, pedagogik amaliyot hamda milliy auditoriya sharoitiga moslashtirilgan maxsus kurslarga alohida e'tibor qaratilgan.

Institut tashkil etilgan dastlabki yillarda uning ilmiy-pedagogik salohiyati nisbatan shakllanish bosqichida bo'lishiga qaramasdan, professor-o'qituvchilar tarkibi yetarli darajada malakali mutaxassislardan iborat edi. Xususan, institutda jami 75 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 23 nafari dotsent va fan nomzodlari, 26 nafari katta o'qituvchilar hamda 26 nafari o'qituvchilardan iborat edi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 8-ish, 3).

Institutda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayoni ham dastlabki yillardanoq yo'lga qo'yila boshlandi. Jumladan, 1964-yilda institutning shtatdagi professor-o'qituvchilari orasidan ikki nafar tadqiqotchi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ulardan S.S. Sa'dinov KPSS tarixi yo'nalishida, V.E. Chudnovskiy esa psixologiya yo'nalishida ilmiy daraja oldi. Mazkur holat tahlil qilinganda esa institutda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining shakllana boshlanganligini ko'rish mumkin edi.

Institut ilmiy faoliyatining muhim yo'nalishlaridan yana biri rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish bilan bog'liq edi. Ayniqsa, rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida a'zolari tomonidan olib borilgan ilmiy-uslubiy ishlar respublika maktablarida rus tilini o'qitish amaliyotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Kafedra olimlari tomonidan ko'plab metodik ishlar, o'quv qo'llanmalar va o'quv dasturlari ishlab chiqilib, ular ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Mazkur ishlanmalar "Русский язык в узбекской школе" ilmiy-metodik jurnali hamda "Высшая и средняя школа" nashriyoti

orqali chop etilib, jamoatchilik orasida keng tarqaldi (Решетов, 1964).

Mazkur jarayon respublikadagi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarining kengayishiga ham turtki berdi. Xususan, pedagogika institutlarida rus tilini milliy maktablarda o'qitish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borildi (Абдуллаев, 1979). Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, rus tilini o'qitish tizimining rivoji aynan oliy pedagogika muassasalaridagi ilmiy-metodik izlanishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Institut olimlari tomonidan maktab ta'limi uchun mo'ljallangan qator darsliklar ham yaratildi. Jumladan, V.A. Chinnov (N. Kolesova bilan hammualliflikda) tomonidan "O'zbek maktablarining 5-7-sinflari uchun rus tili" darsligining I qismi – fonetika bo'limi tayyorlandi. L.P. Abramova va V.S. Naumov tomonidan "Rus tili" darsligining II qismi – sintaksis bo'limi ishlab chiqildi. Shuningdek, S.M. Maxmudova (I. Spasskaya bilan hammualliflikda) tomonidan "O'zbek maktablarining 4-sinfi uchun rus tili" darsligi yaratildi. E.A. Kosminskaya va D.Ya. Vifleemskiy muallifligida esa "O'zbek maktablarining 6-sinfi uchun rus tili bo'yicha o'qish kitobi" tayyorlandi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 8-ish, 21).

Agar institut faoliyatining birinchi yilida ilmiy-tadqiqot ishlari asosan o'qituvchilarning shaxsiy ilmiy qiziqishlaridan kelib chiqib rejalashtirilgan bo'lsa, 1965 yilda esa ilmiy tadqiqotlar mavzularini o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishga, ayniqsa milliy guruhlarda ta'lim jarayonini yaxshilashga bo'ysundirishga harakat qilindi.

Shu maqsadda umumiy tilshunoslik kafedrasida qoshida ilmiy-tadqiqot sektori tashkil etilib, u ilmiy ishlarni rejalashtirish va muvofiqlashtirish bilan shug'ullandi.

Institutda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishning yaxshilanishiga professor-o'qituvchilar tarkibining sifat jihatdan o'sishi ham yordam berdi. Shtatdagi o'qituvchilar malakasining dissertatsiyalar himoyasi orqali

oshirilishidan tashqari (quyida qarang), o'tgan yil davomida institutga shtat asosida ilmiy-tadqiqot tajribasiga ega bo'lgan 5 nafar filologiya fanlari nomzodi – o'zbek millatiga mansub mutaxassislar (ular orasida ikki nafar ayol – o'zbek ayollari ham bor) ishga qabul qilindi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 40-ish, 1).

Institut rektori, professor V.V. Reshetov rahbarligida faoliyat yuritgan ilmiy-tadqiqot sektori institutning o'quv va ilmiy faoliyatini aks ettiruvchi bir qator fundamental ilmiy muammolar ustida izlanishlar olib bordi. Ushbu ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari institut faoliyatining asosiy ilmiy konsepsiyasini tashkil etib, ko'p yillik istiqbolli tadqiqot dasturi sifatida shakllantirildi. Har bir muammo bir necha mavzu va kichik mavzularni o'z ichiga olgan holda ular tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda til o'qitish metodikasi sohalarida keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borishga imkon yaratdi.

Institutda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ham izchil yo'lga qo'yildi. Dastlabki yilda Nizomiy nomidagi pedagogika institutidan 9 nafar aspirant institut aspiranturasiga o'tkazilib, ulardan 5 nafari kunduzgi, 4 nafari sirtqi shaklda tahsil oldi. Aspirantlarning 2 nafari rus tilshunosligi, 3 nafari rus adabiyoti, 2 nafari xorijiy adabiyot va 2 nafari sovet adabiyoti mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlandi. Shu bilan birga, ta'limning uchinchi bosqichida faqat bitta aspirant G. Gafurova tahsil olgan.

Shuningdek, ilmiy kadrlar tayyorlashni kengaytirish maqsadida rus tilshunosligi kafedrasining katta o'qituvchisi V.A. Yakubova Moskva universiteti qoshidagi maqsadli aspiranturaga yuborildi. Uning "Sifatlarning obrazli ma'nolarining rivojlanish tarixi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari muvaffaqiyatli olib borildi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 8-ish, 29).

1965 yilda institut olimlari tomonidan bir qator muhim ilmiy ishlar himoya qilindi. Jumladan, umumiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti A.R. Rustamov "A. Navoiy tilining

fonetik-morfologik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, Alisher Navoiy asarlaridagi til birliklarini fonetik va morfologik jihatdan ilmiy tahlil qildi. Ushbu tadqiqot o'zbek tilshunosligi va turkiy filologiya rivoji uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, institutning katta o'qituvchisi M.S. Konstantinova "Turkiston davriy matbuotida M. Gorkiy (birinchi rus inqilobi davri)" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, rus adabiyotining yirik namoyandasi M. Gorkiy ijodining Turkiston matbuotida aks etishi hamda uning ijtimoiy-adabiy jarayonlarga ta'sirini tadqiq etdi. Dotsent L.N. Ulrix esa "F. Gladkov ijodi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida sovet adabiyotining muhim vakillaridan biri bo'lgan yozuvchi ijodini ilmiy jihatdan tahlil qildi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 40-yig'ma jild, 22).

Mazkur davrda institut olimlarining ilmiy-nashriy faoliyati ham faollashdi. Xususan, taniqli tilshunos olim V.V. Reshetov tomonidan o'zbek tilining fonetikasi va grammatikasiga bag'ishlangan tadqiqotlar, milliy maktablarda rus tilini o'qitish masalalariga oid maqolalar hamda o'zbek dialektologiyasi bo'yicha ilmiy ishlar chop etildi va nashrga tavsiya qilindi. Shuningdek, u pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun rus va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi, o'zbek tili hamda o'zbek dialektologiyasi bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqdi. Tilshunos olim X.G. Gulyamov ham o'zbek shevalari leksikasi va turkiy tillar semantikasi masalalariga bag'ishlangan qator maqolalar e'lon qildi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 40-ish, 23).

Bu davrga kelib rus tilini o'qitish tizimi yanada rivojlandi. Agar institut tashkil etilgan yilida respublikaning milliy maktablarida 5711 nafar rus tili o'qituvchisi faoliyat yuritgan bo'lsa, 1965–1966 o'quv yiliga kelib ularning soni 7857 nafarga yetdi (Кадыров, 1974).

Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutida ilmiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishda institut professor-o'qituvchilari muhim o'rin tutgan. Ayniqsa,

filologiya fanlari sohasida yetuk olimlardan biri bo'lgan professor V.V. Reshetov nafaqat ilmiy tadqiqotlar olib borish, balki yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonida ham faol ishtirok etgan. U O'zbekiston hamda boshqa ittifoq respublikalaridagi oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun fan nomzodlari va fan doktorlarini tayyorlashda katta ilmiy-metodik yordam ko'rsatgan. Uning ilmiy rahbarligida ikki nafar aspirant nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Shuningdek, professor V.V. Reshetov ilmiy ekspert sifatida ham faoliyat yuritib, Frunze shahridagi Qirg'iz davlat universiteti Ilmiy kengashida ikki nomzodlik dissertatsiyasi hamda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasida bir doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha rasmiy opponent sifatida qatnashgan. Bundan tashqari, u o'ndan ortiq ilmiy taqrizlar yozib, bir qator ilmiy to'plamlar va tadqiqot ishlarini tahrir qilgan.

Professor V.V. Reshetovning ilmiy faoliyati respublika va ittifoq miqyosidagi ilmiy jurnallar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. U Moskva shahrida RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasi tomonidan nashr etilgan "Rus tili milliy maktabda", Toshkentda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan "O'zbek tili va adabiyoti", shuningdek Boku shahrida Ozarbayjon SSR Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilgan "Turkiy tillar dialektologiyasi masalalari" ilmiy jurnallarining tahrir hay'ati a'zosi bo'lgan. Bundan tashqari, u Moskva shahrida SSSR Fanlar akademiyasi tomonidan tayyorlangan "SSSR xalqlari tillari" nomli jamoaviy ilmiy asarning Bosh tahririyati tarkibiga ham kirgan hamda "Sotsialistik millatlarning rivojlanishi bilan bog'liq holda milliy tillar rivojlanish qonuniyatlari" kabi fundamental ilmiy muammolarni o'rganishda faol ishtirok etgan.

Institutda ilmiy hamkorlik aloqalari ham izchil rivojlangan. Jumladan, adabiyot kafedralari Moskva shahridagi Jahon adabiyoti instituti hamda Moskva davlat universiteti bilan ilmiy-ijodiy aloqalar o'rnatgan. Tilshunoslik yo'nalishidagi kafedralar esa respublika

pedagogika institutlari, O'zbekiston SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining metodik kabineti, O'qituvchilar malakasini oshirish instituti hamda "Bilim" jamiyati bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib borgan. Shu bilan birga, professor V.A. Chinnova, dotsent D.Ya. Vifleemskiy, professor V.V. Reshetov hamda dotsent A.A. Suxareva O'zbekiston SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining filologiya bo'limi tarkibida faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, S. Mahmudova, E.A. Kosminskaya va boshqa olimlar turli ilmiy nashrlarning tahrir hay'atlari tarkibida ishlaganlar (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 40-ish, 27-28).

1960-yillarning ikkinchi yarmida institut olimlari tomonidan umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish ishlari ham faol olib borildi. Jumladan, 1967 yilda A.A. Suxareva G.M. Axtyamova bilan hammualliflikda o'zbek maktablarining 7-8-sinflari uchun mo'ljallangan "Rus tili" (sintaksis) darsligini nashr ettirdi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 154-ish, 4).

Shuningdek, E.A. Kosminskaya D.Ya. Vifleemskiy bilan hammualliflikda o'zbek maktablarining VIII-sinflari uchun "Rus tilidan o'qish kitobi"ni tayyorladi. A.I. Abramov esa V.S. Naumov bilan birgalikda o'zbek maktablarining X-sinflari uchun "Rus tili sintaksisi" nomli o'quv qo'llanmasini yaratdi. Ushbu darslik va o'quv qo'llanmalari respublika maktablarida rus tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga muhim hissa qo'shdi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 154-ish, 9).

Institutda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada tizimli tashkil etish maqsadida 1968-1970-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqotlar rejasiga "Tilshunoslik asosida oliy o'quv yurtlarining milliy guruhlarida rus adabiy talaffuzi ustida ishlash metodikasining lingvistik asoslari" mavzusi kiritildi. Mazkur ilmiy loyiha bir qator bo'limlarni qamrab olib, milliy guruhlarda rus tilini o'qitishning nazariy va metodik asoslarini chuqur o'rganishga qaratilgan edi. Tadqiqot doirasida milliy maktablar uchun rus tili fakulteti o'quv rejasi ham qayta ishlab chiqildi. Ushbu o'quv rejasini

ishlab chiqishda 1968-yil 12-14-oktyabr kunlari RSFSR va Ukraina pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan O'zbekiston vakillari ishtirokida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyada bildirilgan taklif va tavsiyalar ham inobatga olindi. Mazkur ishlar SSSR Pedagogika fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi, professor V.V. Reshetovning umumiy rahbarligi va tahriri ostida amalga oshirildi hamda o'quv reja O'zbekiston SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining filologiya bo'limi tomonidan ma'qullandi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat.272-ish, 14).

1970-yillarning boshlariga kelib o'zbek tilida ta'lim beriladigan maktablar tarmog'ining kengayishi hamda rus tilining millatlararo muloqot vositasi sifatidagi roli kuchayishi munosabati bilan malakali rus tili o'qituvchilarini tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj keskin ortdi (Кадыров, 1974). Institutning ilmiy-pedagogik salohiyati yanada mustahkamlandi. Xususan, 1972-yil 1-yanvar holatiga ko'ra institut tarkibidagi 15 ta kafedrada jami 194 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritgan. Ularning tarkibida SSSR Pedagogika fanlari akademiyasining 1 nafar akademigi, 3 nafar professor, 36 nafar dotsent va fan nomzodlari hamda 154 nafar katta o'qituvchi va o'qituvchilar mavjud bo'lgan (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 400-ish, 15).

1970-yillarga kelib institutda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni yanada jadallashdi. Xususan, 1974 yilda bir qator ilmiy tadqiqotlar muvaffaqiyatli himoya qilinib, institut ilmiy salohiyatining mustahkamlanayotganini ko'rsatdi. Jumladan, N.A. Zaldiner "Milliy maktabda rus tilida tushuntiruvchi o'qishning ilmiy asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shuningdek, A.Z. Pistsova "M.M. Dostoyevskiy (ijodi va hayoti)" mavzusida, M.I. Djumanov esa "O'zbek she'riyatida ozodlik va ijtimoiy adolat uchun kurash motivlari (1905-1907-yillar)" mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 700-ish, 146). Mazkur tadqiqotlar adabiyotshunoslik va

tilshunoslik yo'nalishlarida olib borilgan ilmiy izlanishlarning kengayib borayotganini hamda institutda turli ilmiy maktablar shakllanib borayotganini ko'rsatadi.

1970-yillarning o'rtalarida rus tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari ittifoq miqyosida ham dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etildi. Shu munosabat bilan 1975-yil 21-23-oktyabr oyida Toshkent shahrida "Mamlakat maktablari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida rus tilini o'rganish va o'qitish tajribasi" mavzusida Butunittifoq ilmiy konferensiyasi o'tkazildi. (Першуткина, Макушин, Федорко, 2022). Mazkur konferensiya yakunlari asosida O'zbekiston KP MK tomonidan "Respublika maktablari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish va o'rganishni yanada takomillashtirish choralari to'g'risida" qaror qabul qilindi. Ushbu qaror rus tilini o'qitish metodikasini ilmiy asosda rivojlantirish, o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish hamda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada kuchaytirishga xizmat qildi (Мустафаева, 2021).

Mazkur davrda institut ilmiy xodimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida yangi ilmiy ishlar ham himoya qilindi. Jumladan, V.I. Stavskiy "Nutqda gaplarning semantik-sintaktik bog'lanishlari" mavzusida, F.G. Nurislov "Pedagogika institutlarining rus tili va adabiyoti fakultetlari milliy guruhlarida rus paremiologiyasini o'rganishning lingvometodik asoslari" mavzusida hamda S.B. Im "Ot turkumidagi so'z yasashida morfonologik almashinuvlar" mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1043-ish, 146). Ushbu ilmiy ishlar rus tili grammatikasi, lingvometodika va tilshunoslikning nazariy masalalarini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, milliy guruhlarda rus tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini boyitishga xizmat qildi.

1970-yillarning oxiri – 1980-yillarning boshlarida Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutida ilmiy-tadqiqot faoliyati

tizimli ravishda rivojlanib, u ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda milliy maktablar uchun yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash vazifalari bilan uzviy bog'liq holda olib borildi. 1979-yil 22–24-may kunlari Toshkent shahrida "Rus tili – SSSR xalqlari do'stligi va hamkorligi tili" mavzusida Butunittifoq ilmiy-nazariy konferensiya o'tkazildi.

Davlat organlari tomonidan rus tilining "kommunizm qurish, yangi insonni tarbiyalash" jarayonidagi alohida roli, shuningdek, uning "millatlarning tobora yaqinlashuvi" jarayonidagi ahamiyati ta'kidlandi. Konferensiya ishtirokchilari ittifoq respublikalarida rus tilining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalar qabul qildilar (Мустафаева, 2021).

Mazkur davrda institut kafedralari professor-o'qituvchilarining ilmiy izlanishlari yagona kompleks ilmiy muammo – "Rus tili millatlararo muloqot vositasi va maktab ta'limining muhim fanlaridan biri sifatida" mavzusini tadqiq etishga yo'naltirildi. Ushbu ilmiy yo'nalish institut ilmiy faoliyatining asosiy mazmunini belgilab berib, turli kafedralar faoliyatini yagona ilmiy maqsad atrofida birlashtirdi. Tadqiqotlarda filolog-tilshunoslar, adabiyotshunoslar, pedagoglar, psixologlar, metodistlar hamda ijtimoiy fanlar kafedralari vakillari faol ishtirok etdilar. Ilmiy izlanishlar jarayonida rus tili va adabiyotini milliy maktablar hamda oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning lingvistik, adabiyotshunoslik, psixologik-pedagogik hamda metodik asoslari chuqur o'rganildi. Shuningdek, milliy maktablar uchun rus tili o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv rejasidagi fanlarning kasbiy-pedagogik yo'nalishini kuchaytirish, tillarni o'qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish, rus tilining jamiyatdagi funksional faoliyatini sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilish hamda SSSR xalqlari tillari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va boyish jarayonlarini tadqiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur ilmiy faoliyat natijasida institut professor-o'qituvchilari tomonidan bir qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar

va metodik ishlanmalar nashr etildi. Jumladan, I.A. Gurvichning "Karamzin va rus nasrining rivojlanishi" nomli monografiyasi, nutq madaniyati va texnik vositalar kafedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan "Hozirgi rus tili (nutqni texnik o'qitish vositalari asosida rivojlantirish)" o'quv qo'llanmasi, K.M. Dieva, I.G. Ldova, A.Ya. Kravchenko, A.M. Avvakumova va K.I. Ulaeva muallifligidagi "Rus tiliga kirish (propedevtika)" o'quv qo'llanmasi, A.A. Kiseleva tomonidan tuzilgan fonetika bo'yicha mashqlar to'plami, shuningdek A.Z. Pistsovaning "F.M. Dostoyevskiy: hayoti va ijodiga oid ocherk" monografiyasi hamda milliy fakultet talabalari uchun mo'ljallangan "XIX asr rus adabiyoti" kursi bo'yicha ikki qismli praktikum nashr etildi.

Bundan tashqari, institut olimlari tomonidan g'oyaviy-tarbiyaviy, tilshunoslik hamda metodik yo'nalishdagi ilmiy ishlanmalar ham chop etildi. Xususan, Ch.A. Abutalipovning "Hayot bilan uzviy bog'liqlikda. Zamonaviy sharoitda partiyaning g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarining ayrim muammolari" asari, I.L. Maronning "Talabalarning internatsional tarbiyasi" nomli ilmiy-ommabop risolasi, shuningdek "Rus adabiyotiga kirish" kursi bo'yicha o'quv qo'llanma va o'quv dasturlari nashr qilindi. Shu bilan birga, S.M. Mahmudova tomonidan o'zbek maktablari uchun "Rus tili rasmlarda" darsligi, 1-3-sinflarda rus tilini o'qitish bo'yicha o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma hamda milliy maktablarda rus tilini o'qitish metodikasiga oid o'quv dasturi ishlab chiqildi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1345-ish, 80-81).

Mazkur davrda institutda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bir qatorda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni ham izchil rivojlandi. Professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Jumladan, M.A. Xegayning "O'zbek maktablarida rus og'zaki nutqini boshlang'ich o'qitish mazmunining lingvistik asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi hamda Sh.I. Abdurashidovanning "Yuqori sinf o'quvchilari nutqida atributiv so'z

birikmalarini faollashtirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi institut ilmiy salohiyatining o'sib borayotganini ko'rsatdi. (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1345-ish, 112).

Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika instituti rivojlanish tarixida 1980-yillarning boshlaridan boshlangan davr alohida bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur davr filologiya fanlari doktori, professor Galina Nikolaevna Shcheglovaning 1981-yildan boshlab institutga rahbarlik qilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aynan shu yillarda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish hamda institutning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirildi. Natijada institutning ilmiy-pedagogik salohiyati sezilarli darajada mustahkamlanib, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi yangi bosqichga ko'tarildi (Tuxtasinov, 2025).

Ilmiy-tadqiqot ishlari sohasida qo'yilgan vazifalarni samarali amalga oshirishda institutda shakllangan yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar muhim o'rin tutdi. 1980-1981 o'quv yilida institut shtatida 280 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 7 nafari fan doktorlari, professorlar edi. Ular qatoriga tarix fanlari doktori, professor Ch.A. Abutalipov, filologiya fanlari doktori, professor V.A. Redkin, filologiya fanlari doktori, professor A.P. Rustamov, pedagogika fanlari doktori, professor M.A. Xegay, pedagogika fanlari doktori, professor M.A. Zaldiner, filologiya fanlari doktori, professor G.N. Shcheglova hamda professor M.S. Zaxarina kirgan. Shuningdek, institutda 66 nafar fan nomzodi, dotsentlar faoliyat olib borib, ular ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va rivojlantirishda yetakchi rol o'ynadilar. Bundan tashqari, aspirantlar va fakultet tinglovchilari bilan ishlash uchun shtatdan tashqari hamkor sifatida yana 4 nafar fan doktori jalb etildi. Ular orasida psixologiya fanlari doktori, professor M.G. Davletshin, filologiya fanlari doktori, professor L.D. Usmanov, falsafa fanlari doktori,

professor A.S. Agaronyan hamda SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, filologiya fanlari doktori, professor M.K. Xamraev bor edi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1537-ish, 4).

Mazkur davrda institutda olib borilgan ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasida ko'plab monografiyalar, o'quv qo'llanmalar va o'quv-metodik dasturlar yaratilib, ta'lim jarayonining ilmiy-uslubiy bazasi sezilarli darajada boyitildi. Jumladan, G.N. Shcheglovaning "Badiiy asarning tili va uslubi", I.M. Abdurahmanovning "Mehnat intizomi: tajriba va muammolar", V.Ya. Malashinning mehnatkashlarning axloqiy tarbiyasida partiya tashkilotlarining roli masalalariga bag'ishlangan tadqiqoti hamda N.G. Arutyunovanning hammualliflikdagi monografiyasi nashr etildi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1537-ish, 7).

Shu bilan birga, institut olimlari tomonidan pedagogika oliy o'quv yurtlari va umumta'lim maktablari uchun rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan qator o'quv qo'llanmalar ham ishlab chiqildi. Xususan, diktant va bayon matnlari to'plamlari, milliy guruh talabalari uchun rus tilining propedevtik kursi, rus va o'zbek tillarining qiyosiy tipologiyasiga oid o'quv dasturi hamda XX asr rus adabiyoti bo'yicha metodik qo'llanmalar nashr etildi.

1982–1983 o'quv yilida institutda ilmiy-tadqiqot faoliyati yanada faollashib, ilmiy nashrlar soni hamda ilmiy kadrlar tayyorlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Mazkur davrda institut professor-o'qituvchilari tomonidan 5 ta monografiya (G.N. Shcheglova, I.M. Abdurahmanov, M.A. Zaldiner, X.G. G'ulomov, Ch.A. Abutalipov muallifligida) nashr etildi. Shuningdek, "Rus tili darajalari" nomli ilmiy ishlar to'plamining birinchi soni chop etildi, 3 ta o'quv dasturi hamda 4 ta o'quv-metodik qo'llanma tayyorlanib nashr qilindi. Bundan tashqari, institut olimlari tomonidan 40 dan ortiq ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Shu bilan birga, A.M. Startseva, A.Ch. Telishova hamda N.Ya. Milshteyn muallifligidagi monografiyalar tegishli nashriyotlarga chop etish uchun

topshirildi. (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1904-ish, 94).

Mazkur davrda institutda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni ham izchil davom etdi. 1982–1983 o'quv yilida bir qator o'qituvchilar nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Jumladan, L.A. Kim, A.M. Avvakumova, G.M. Shakirova, A.S. Lixodziyevskiy, A.N. Xolmuradov, M.D. Djusupov hamda V. Engalichyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar institut ilmiy salohiyatining oshib borayotganini ko'rsatdi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1904-ish, 147).

Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutida ilmiy-tadqiqot faoliyatini institutsional jihatdan takomillashtirish hamda ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish borasida muhim tashkiliy choralar amalga oshirildi. Xususan, 1983-yilda Oliy attestatsiya komissiyasining 267/427-son buyrug'i asosida rus adabiyotini o'qitish metodikasi yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash tashkil etildi. Mazkur ilmiy kengashning faoliyati institutda ilmiy izlanishlarning tizimli yo'lga qo'yilishiga, ilmiy darajali kadrlar tayyorlash jarayonining kengayishiga hamda rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasi sohasida ilmiy tadqiqotlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga muhim turtki berdi. Shu bilan birga, SSSR Maorif vazirligining 180-son buyrug'i asosida institutda 17.02.01 – "Rus tili" mutaxassisligi bo'yicha aspirantura ochilishi ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada mustahkamladi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat (davomi), 2044-ish, 3).

Mazkur davrda milliy maktablar uchun rus tili va adabiyoti o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni kompleks pedagogik tizim asosida amalga oshirilgan bo'lib, u nazariy fanlarni chuqur o'rganish, rus tilini o'qitish metodikasi hamda umumta'lim maktablarida keng ko'lamlil pedagogik amaliyotni o'z ichiga olgan. (Bu jarayonda rus va o'zbek tillarini qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar alohida

ahamiyat kasb etgan. Natijada pedagogika institutlarida milliy maktablar uchun rus tili o'qituvchilarini tayyorlashning o'ziga xos ilmiy-metodik tizimi shakllandi. Ushbu tizim rus tilini o'qitish metodikasini chuqur o'rganish hamda pedagogik amaliyot jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qilgan (Юнцов, 2010).

1984–1985-o'quv yilida institutda ilmiy kadrlar tayyorlash sohasida sezilarli natijalarga erishildi. Mazkur davrda 2 ta doktorlik hamda 10 ta nomzodlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilindi. Jumladan, I.P. Varfolomeev tomonidan "Sovet tarixiy romanlari: tipologiya va poetika muammolari", I.I. Abduraxmanov tomonidan esa "Sotsialistik mehnat intizomi va ijtimoiy boshqaruv" mavzularida doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinib, adabiyotshunoslik hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojiga muhim ilmiy hissa qo'shildi. Shu bilan bir qatorda, E.P. Kopnina, A.Ya. Kravchenko, I.G. Anishenko kabi yosh tadqiqotchilar tomonidan rus tilini milliy guruhlarda o'qitish metodikasiga bag'ishlangan lingvodidaktik tadqiqotlar olib borilib, ular pedagogika oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan muhim ilmiy natijalarni taqdim etdi.

Adabiyotshunoslik va tilshunoslik yo'nalishlarida ham qator muhim ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, L.G. Solodnikova tomonidan yopiq she'riy matnning semantik tuzilishiga bag'ishlangan tadqiqot, F.N. Maksudov tomonidan ilmiy nazariya va tafakkur uslubi o'rtasidagi bog'liqlik masalalari o'rganildi. Til o'qitish metodikasi yo'nalishida esa N.V. Surkova rus tilida fe'l yasashni o'qitish metodikasining lingvistik asoslarini tahlil qilib, milliy guruhlarga uchun rus tilini o'qitish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan tadqiqot olib bordi. Bundan tashqari, E.N. Shevyakova, R.V. Kim, Slujevskaya hamda E.G. Zlatina tomonidan adabiyotshunoslik va tilshunoslikning turli muammolariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2109-ish, 136).

Mazkur davrda institutda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari ilmiy nashrlar, monografiyalar, darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalar ko'rinishida muntazam ravishda e'lon qilinib bordi. Bu holat institut professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati yuksalib borayotganligini hamda mustaqil ilmiy maktablar shakllanayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, filologiya fanlari doktori, professor G.N. Shcheglova tomonidan sovet dramaturgiyasi va adabiyotshunoslik masalalariga bag'ishlangan "L. Leonov dramaturgiyasining janr-uslubiy o'ziga xosligi" hamda "Buyuk Oktyabr sotsialistik inqilobi va fuqarolar urushi mavzusi sovet dramaturglarining 1920–1930-yillardagi ijodida" nomli monografiyalar nashr etildi. Shuningdek, I.P. Varfolomeevning "Sovet tarixiy romanlari: tipologiya va poetika muammolari" hamda A.M. Startsevaning "Zamonaviy sovet nasrining poetikasi" asarlari sovet adabiy jarayonini ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan muhim tadqiqotlar sifatida e'tirof etildi.

Institut professor-o'qituvchilari tomonidan maktab ta'limi uchun mo'ljallangan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish ham faol davom ettirildi. Jumladan, S.M. Mahmudovanning "O'zbek maktabining birinchi sinfi uchun rus tili darsligi", R.V. Kim, T.V. Dolgova, R.G. Sundatova hamda V.N. Isakova hammuallifligida yaratilgan "Zamonaviy rus tili" kursi bo'yicha nazorat ishlari to'plami nashr etildi. Bundan tashqari, Yu.G. Syomina, L.S. Kurbanova va A.M. Reves tomonidan turli yo'nalishlarda o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlandi. Mazkur nashrlar institutning ilmiy-pedagogik faoliyati nafaqat oliy ta'lim tizimiga, balki respublika maktab ta'limi rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlaydi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2109-ish, 102-103).

Institutda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari nafaqat ichki ilmiy yo'nalishlar doirasida, balki respublika va ittifoq miqyosidagi ilmiy dasturlar bilan ham uzviy bog'liq holda rivojlantirildi. Xususan, Maorif vazirligining buyurtma rejasi 1986-yil 25-

fevraldagi №60-son buyrug'i bilan tasdiqlanib, mazkur ilmiy dastur doirasida institut bosh ijrochi tashkilot sifatida belgilandi. Shu bilan birga, mamlakatning 21 ta oliy o'quv yurti mazkur ilmiy loyiha bo'yicha hamkor ijrochi sifatida jalb etildi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2250-ish, 68).

Buyurtma-reja doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy mavzusi "Milliy maktablarda, maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda pedagogika o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish mazmuni va metodlarini takomillashtirish" masalasiga bag'ishlandi. Ushbu ilmiy yo'nalish respublika ta'lim tizimining dolzarb ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirilgan bo'lib, unda rus tilini milliy auditoriyada samarali o'qitish metodikasini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini takomillashtirish hamda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish kabi masalalar markaziy o'rin egalladi. Shundan kelib chiqib institut ilmiy maktablari doirasida bir qator nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalarini qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

1980-yillarning o'rtalariga kelib Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutida ilmiy-tadqiqot faoliyati sezilarli darajada faollashib, ilmiy nashrlar hamda o'quv-metodik adabiyotlar yaratish jarayoni tizimli tus oldi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, mazkur davr mobaynida institut professor-o'qituvchilari tomonidan beshta monografiya, bitta ilmiy maqolalar to'plami, yettita o'quv qo'llanma hamda 92 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Bu holat institut ilmiy jamoasining ilmiy salohiyati ortib borayotganini hamda filologiya, pedagogika va til o'qitish metodikasi sohalarida olib borilgan tadqiqotlar ko'lamining kengayganini ko'rsatadi.

Mazkur yillarda yaratilgan yirik ilmiy ishlardan professor G.N. Shcheglova tomonidan tayyorlangan "Qahramonlik-inqilobiy janrning rivojlanish yo'llari" nomli

monografiya, dotsent V.M. Beldyanning "Rus grafika va orfografiyasi" asari hamda katta o'qituvchi Kiseleva tomonidan tuzilgan "Rus tili fonetikasi bo'yicha mashqlar to'plami" nomli o'quv qo'llanmasini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu asarlar tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda rus tilini o'qitish metodikasi yo'nalishlarida olib borilgan ilmiy izlanishlarning muhim natijalari sifatida e'tirof etiladi.

1985-yilda institut jamoasi tomonidan SSSR Maorif vazirligining buyurtma-rejasiga muvofiq pedagogika institutlari talabalari uchun psixologik-pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari yakunlandi. Mazkur loyiha pedagogika oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining ilmiy-metodik asoslarini mustahkamlash hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, institut professor-o'qituvchilari tomonidan umumta'lim maktablarida amalga oshirilgan ta'lim islohotlari talablariga mos holda bir qator darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar yaratildi. Xususan, dotsent S.M. Mahmudova hammuallifligida tayyorlangan o'zbek tilida ta'lim beriladigan maktablarning boshlang'ich sinflari uchun rus tili o'qituvchilariga mo'ljallangan metodik qo'llanma pedagogik amaliyotda muhim o'rin tutgan. Shuningdek, S.M. Mahmudova tomonidan o'zbek maktablarining 3-sinfi uchun rus tili darsligi qo'lyozmasi tayyorlangan. Bundan tashqari, dotsentlar F.I. Gubina va S.M. Mahmudova tomonidan pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun rus tili va adabiyoti fanlari bo'yicha pedagogik amaliyot dasturi ishlab chiqildi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2182-ish, 111). Mazkur ishlar institut ilmiy jamoasining ta'lim jarayonini metodik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan faoliyatini yaqqol namoyon etadi.

1986–1987-o'quv yilida institutning ilmiy-pedagogik salohiyati yanada mustahkamlandi. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davrda institutda 287 nafar shtatdagi

o'qituvchi hamda 116 nafar soatbay ishlovchi o'qituvchi faoliyat olib borgan. Shtatdagi o'qituvchilar tarkibida 7 nafar fan doktori va professor, 99 nafar fan nomzodi va dotsent, 181 nafar katta o'qituvchi hamda o'qituvchilar faoliyat yuritgan. Professor-o'qituvchilar tarkibida 208 nafar xotin-qizlar bo'lib, ular orasida 38 nafar o'zbek millatiga mansub ayol o'qituvchilar mavjud bo'lgan (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2250-ish, 5). Bu ko'rsatkichlar institutda ilmiy-pedagogik kadrlar tarkibining kengligi hamda ayol olimlarning ilmiy-pedagogik faoliyatdagi salmoqli o'rnini ko'rsatadi.

Mazkur davrda institutda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayoni ham izchil davom etdi. Ushbu davrda F.Z. Musayev, V.R. Akopyan, G.X. Bakiyeva, G.V. Akimov, L.S. Siddikova va T.Yu. Landa kabi tadqiqotchilar tomonidan tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda pedagogika sohalariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilib, nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi (TSHDMA, P-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2250-yig'ma jild). (Отчёт Республиканского педагогического института русского языка и литературы, 1986–1987).

1990-yilda Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutida ilmiy-tadqiqot faoliyati institutsional jihatdan ancha keng qamrov kasb etib, professor-o'qituvchilar tarkibining katta qismi ilmiy izlanishlar bilan shug'ullandi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, institutdagi 414 nafar xodimdan 314 nafari ilmiy-tadqiqot ishlarida bevosita ishtirok etgan bo'lib, bu ko'rsatkich muassasaning ilmiy salohiyati va tadqiqot faoliyatining barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. Mazkur tarkibda 10 nafar fan doktori va professor, 116 nafar fan nomzodi hamda dotsent, shuningdek 67 nafar aspirant, 16 nafar tadqiqotchi-stajyor va o'qituvchi-stajyor faoliyat yuritgan. Bu esa institutda ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi bosqichma-bosqich shakllanganini hamda ilmiy-pedagogik maktablarning izchil rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Shu davrda ilmiy darajalar olish jarayoni ham faollashib, institutning 18 nafar

xodimi nomzodlik dissertatsiyasini, bir nafar xodim esa doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilganligi qayd etiladi. Mazkur holat institutning ilmiy salohiyati yildan-yilga ortib borayotganini hamda ilmiy kadrlar tayyorlash sohasida muhim natijalarga erishilganini ko'rsatadi (TSHDMA, R-588-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2480-yig'ma jild, 1–2).

Bu davrda institut professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv adabiyotlari yaratish, darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash hamda ularni nashrga tavsiya etish borasida ham muhim ishlar amalga oshirildi. Bu jarayon oliy va umumta'lim tizimi uchun metodik jihatdan mukammal o'quv adabiyotlari yaratish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilgan. Jumladan, filologiya fanlari doktori, professor G. N. Sheglova tomonidan Leningraddagi "Prosveshcheniye" nashriyotida pedagogika institutlari talabalari uchun mo'ljallangan "Rus sovet adabiyoti" nomli darslik nashr etildi. Mazkur darslik sovet adabiyoti tarixini tizimli ravishda o'rganishga qaratilgan muhim ilmiy-o'quv manba bo'lib, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida adabiyotshunoslik fanini o'qitish jarayonida keng foydalanilgan.

Shuningdek, professor S. M. Mahmudova hamda dotsent V. M. Lykova tomonidan o'zbek maktablarining 7-sinfi uchun fan chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflarga mo'ljallangan rus tili o'quv qo'llanmasi tayyorlanib nashr etildi. Mazkur qo'llanma rus tilini chuqurlashtirilgan darajada o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilib, milliy maktablarda rus tilini o'qitish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan boyitdi. Adabiyotshunoslik yo'nalishida esa dotsent F. I. Gubina tomonidan "8-sinf uchun rus adabiyotidan darslik-xrestomatiya" chop etildi. Ushbu o'quv adabiyoti umumta'lim maktablarida rus adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan muhim didaktik manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Institutda xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga doir ilmiy-uslubiy izlanishlar ham faol olib borilgan. Jumladan, dotsent Yu. Aglaev

tomonidan mustaqil o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan ingliz tili darsligi ishlab chiqilib, nashriyotga topshirilgan. Bu esa institut ilmiy faoliyati faqat rus tili va adabiyoti bilan cheklanib qolmaganligini, balki xorijiy tillarni o'qitish metodikasini rivojlantirish yo'nalishida ham tadqiqotlar olib borilganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, professor A. R. Rustamov rahbarligidagi ilmiy jamoa tomonidan o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan "O'zbek tilini o'rganamiz" nomli o'quv qo'llanma tayyorlanib nashriyotga topshirildi. Mazkur qo'llanma turli millat vakillariga o'zbek tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, respublikada davlat tilini o'qitish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan (TSHDMA, R-588-jam'arma, 1-ro'yxat, 2480-ish, 4).

Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda institut olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy faoliyat natijalari asosan monografiyalar, ilmiy risolalar, ilmiy maqolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar ko'rinishida nashr etilgan. Ushbu ilmiy ishlar ijtimoiy fanlar, adabiyotshunoslik, lingvistika, rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasi hamda pedagogika muammolariga bag'ishlangan bo'lib, ular respublika oliy o'quv yurtlari va umumta'lim maktablari uchun muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qildi.

Bundan tashqari, institut olimlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari, metodik tavsiyalar va o'quv qo'llanmalar respublika ta'lim tizimida keng qo'llanilib, rus tili va adabiyotini hamda xorijiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirishga muhim hissa qo'shdi.

#### **Xulosa**

Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutida olib borilgan ilmiy-

tadqiqot ishlari institutning nafaqat pedagogik kadrlar tayyorlash markazi, balki respublikada filologiya va pedagogika sohalarida ilmiy maktab shakllanishiga xizmat qilgan muhim ilmiy muassasalardan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Institut faoliyati davomida professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqot natijalarini ta'lim jarayoniga joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, institutda aspirantura faoliyati, dissertatsiya himoyalari, ilmiy seminar va konferensiyalar tashkil etilishi ilmiy muhitning rivojlanishiga muhim turtki bo'ldi. Shu bilan birga, institut olimlari tomonidan yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar hamda metodik ishlanmalar respublika maktablari va oliy ta'lim muassasalarida rus tili va adabiyotini o'qitish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Davlat miqyosida qabul qilingan qaror va buyruqlar asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish tizimi takomillashtirilib, ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlari tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda rus tilini o'qitish metodikasi kabi muhim sohalarini qamrab olgan. Natijada institutda ilmiy maktablar shakllanib, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda respublika ta'lim tizimini ilmiy-metodik jihatdan rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shildi.

Umuman olganda, olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika institutining ilmiy salohiyati yildan-yilga ortib borganini, u respublikada rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlarida yetakchi ilmiy markazlardan biri sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

## References:

1. Abdullaev, E. (1979). Russkiy yazyk: zhizn' posle smerti. Yazyk, politika i obshchestvo v sovremennom Uzbekistane. *Russkiy yazyk v natsional'noy shkole*, (4), 2–35.
2. Kadyrov, I. B. (1974). *Ocherki razvitiya obshcheobrazovatel'noy shkoly Sovetskogo Uzbekistana*. Tashkent.
3. Kayumov, V. (2017). O'zbekistonda xorijiy tillar. *O'zbekiston'da xorijiy tillar ilmiy-metodik elektron jurnal*, (3), 16.
4. Mustafaeva, N. A. (2021). Russkiy yazyk v shkolakh sovetskogo Uzbekistana. 30–80-e gg. XX veka. *Istoricheskaya etnologiya*.
5. Pershutkina, S. P. (2022). *Russkiy yazyk v geokul'turnom prostranstve Uzbekistana*.
6. Reshetov, V. V. (1964). Novyy institut i osobennosti uchebnogo plana. *Russkiy yazyk v uzbekskoy shkole*, (2).
7. Tuxtasinov, I. (2025). *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. Barhayot ziyolilar*. Toshkent.
8. Yunusov, T. (2010). *Razvitie russkogo yazyka v Uzbekistane i ego vliyanie na obrazovatel'nuyu sistemu* (pp. 125–130). Tashkent: Izdatel'stvo Uzbekskogo natsional'nogo universiteta.
9. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1963–1964). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1963–64 uchebnyy god* (R-588, 1-ro'yxat, 8-ish, 21-varaq).
10. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1963–1964). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1963–64 uchebnyy god* (R-588, 1-ro'yxat, 8-ish, 29-varaq).
11. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1965). *Otchet o nauchno-issledovatel'skoy rabote Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1965 god* (R-588, 1-ro'yxat, 40-ish, 1-varaq).
12. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1965). *Otchet o nauchno-issledovatel'skoy rabote Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1965 god* (R-588, 1-ro'yxat, 40-ish, 22–23-varaq).
13. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1965). *Otchet o nauchno-issledovatel'skoy rabote Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1965 god* (R-588, 1-ro'yxat, 40-ish, 27–28-varaq).
14. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1967). *Otchet o nauchno-issledovatel'skoy rabote Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1967 god* (R-588, 1-ro'yxat, 154-ish, 4-varaq).
15. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1967). *Otchet o nauchno-issledovatel'skoy rabote Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1967 god* (R-588, 1-ro'yxat, 154-ish, 9-varaq).
16. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1969). *Otchet o nauchno-issledovatel'skoy rabote Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1969 god* (R-588, 1-ro'yxat, 272-ish, 14-varaq).
17. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1974–1975). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1974–1975 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 700-ish, 146-varaq).
18. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1977–1978). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1977–1978 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 1043-ish, 146-varaq).

19. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1979–1980). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1979–1980 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 1345-ish, 80–81-varaq).
20. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1979–1980). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1979–1980 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 1345-ish, 112-varaq).
21. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1980–1981). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1980–1981 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 1537-ish, 4-varaq).
22. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1980–1981). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1980–1981 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 1537-ish, 7-varaq).
23. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1980–1981). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1980–1981 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 1904-ish, 94-varaq).
24. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1980–1981). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1980–1981 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 1904-ish, 147-varaq).
25. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1983–1984). *Respublikanskiy pedagogicheskii institut russkogo yazyka i literatury za 1983–1984 uchebnyy god* (R-588, 1-ro'yxat, 2044-ish, 3-varaq).
26. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1984–1985). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1984–1985 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 2109-ish, 136-varaq).
27. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1984–1985). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1984–1985 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 2109-ish, 102–103-varaq).
28. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1985–1986). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1985–1986 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 2182-yig'ma jild, 111-varaq).
29. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1986–1987). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1986–1987 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 2250-ish, 5-varaq).
30. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1986–1987). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1986–1987 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 2250-ish, 68-varaq).
31. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1986–1987). *Otchet Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1986–1987 gody* (R-588, 1-ro'yxat, 2250-ish, 100-varaq).
32. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1990). *Otchet o nauchno-issledovatel'skoy rabote Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1990 god* (R-588, 1-ro'yxat, 2480-yig'ma jild, 1–2-varaq).
33. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). (1990). *Otchet o nauchno-issledovatel'skoy rabote Respublikanskogo pedagogicheskogo instituta russkogo yazyka i literatury za 1990 god* (R-588, 1-ro'yxat, 2480-yig'ma jild, 4-varaq).